

# INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

# ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

# THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI\_Instituti



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.qmii.uz](http://www.ojs.qmii.uz)

# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON  
JURNAL

3-jild  
2-son  
iyun, 2025

June 2025  
Volume 3  
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY  
Electronic Scientific and Practical  
Journal

# INNOVATSION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

### Muassis:

**Qarshi davlat texnika universiteti**

### Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qarshi davlat texnika universiteti**

### Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qarshi davlat texnika universiteti**

### Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

**Qarshi davlat texnika universiteti**

### Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.**

*Tahririyat manzili:*

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

### TAHRIRIYAT KENGASHI:

#### Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

#### Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON  
JURNAL

# Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy masalalari

Saidova Gulnoza Tulkunovna

## Экономические вопросы продовольственной безопасности

Саидова Гульноза Тулкуновна

## Economic issues of food safety

Saidova Gulnoza Tulkunovna

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy masalalari, oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlari to'g'risida so'z yuritilgan.
- **Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat bozori, oziq-ovqat importi, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish.
- **Аннотация.** В статье рассматриваются экономические вопросы обеспечения продовольственной безопасности, безопасности пищевых продуктов, меры, принимаемые по развитию пищевой промышленности, привлечению инвестиционных средств в отрасль, поддержке экспортной деятельности.
- **Ключевые слова:** Продовольственная безопасность, продовольственный рынок, импорт продовольствия, модернизация сельского хозяйства.
- **Abstract.** The article discusses the economic issues of ensuring food security, food safety, measures taken to develop the food industry, attract investment funds to the sector, and support export activities.
- **Keywords:** Food security, food market, food imports, modernization of agriculture.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Global muammolar, ya'ni ishlab chiqarishning kengayishi natijasida tabiiy va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, mintaqalarda iqlimning o'zgarishi, cho'llashishning ortib borishi, suv tanqisligi va dunyo aholi sonining muttasil oshib borishi barcha davlatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligini asosiy masalalardan biriga aylantirdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi — aholining barcha qatlamlarini sog'lom va faol hayot kechirishlari uchun jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning iste'mol ehtiyojlarini to'liq qoplash, xavfsizlik ko'rsatkich me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash, yuqori ozuqaviy

qiymatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarini kafolatlovchi davlatning iqtisodiy holati.

So'nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSH dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSH dollaridan oshdi [1].

Ta'kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to'ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o'z o'zini ta'minlashga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning etakchi tarmog'i sanaladi. Shu jihatdan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligida er va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan

qonunchilikni yanada mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo'lishiga erishish zarur. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur".

## ■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakat iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi, aholining turmush farovonligidagi rolini asoslashga turli MDH iqtisodchi olimlaridan D.V.Zerakalovning "Oziq ovqat xavfsizligi" monografiyasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari butun mamlakatlar miqyosida ko'plab amaliy tahlillar keltiradi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash suv resurslarining XXI asrga borib tanqisligi yuzaga kelganligi va bu global iqtisodiy muammoga aylanishi haqida ko'plab rasmiy statistik materiallar tahlili olib borilgan [2].

Iqtisodchi olim L.Revenko o'zining "Oziq-ovqat xavfsizligi echimini topish imkoni mavjud" nomli maqolasida jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosan tashqi oqimlar ya'ni, mamlakatlarda ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatiga bog'liq holda taqsimlash masalalari ko'rib chiqilgan [3].

O'zbekistonda tadqiq qilinayotgan muammolarning ayrim tomonlari umumiy tarzda H.P.Abulqosimovning "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" o'quv qo'llanmasida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi umumiy tarzda o'rganilgan [4].

## ■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni baholash hamda amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganib chiqildi. Rasmiy statistik ma'lumotlari asosida taqqoslama jadvallar shakllantirildi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

## ■ TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda yil sayin ko'payib borayotgan aholini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish imkoniyati

bilan ta'minlashda mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida 2016 — 2022-yillarda jami 329 ming gektar paxta va g'alla yer maydonlari maqbullashtirilib, o'rniga yuqori rentabelli oziq-ovqat va ozuqa ekinlari joylashtirildi.

Shu bilan birga, 2023-yilda yana qo'shimcha 93 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, aholiga dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga yer ajratildi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida erishilgan ijobiy natijalar bilan birga tabiiy resurslardan maqbul va barqaror foydalanishda xavf-xatar soluvchi bir qator muammo va kamchiliklar yuzaga kelgan.

Bugungi kunda respublikamizdagi jami 21,2 million gektar yaylov yerlarning 16,9 million gektari (79,5 %) foydalanishda bo'lib, qolgan 4,3 million gektari o'rmon yer fondi va davlat zaxirasiga olingan. 2023-yilgacha 10,3 million gektar yaylov yerlarda o'tkazilgan geobotanik tadqiqotlarga ko'ra 703 ming gektar (7,7 %) yaylov yerlar degradatsiyaga uchrab, qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz holga kelib qolgan.

Bugungi kunda 2,0 mln gektardan (65 %) ortiq sug'oriladigan yerlarning gumus miqdori 1 foizdan past darajaga tushib qolganligi, 44 foizi turli darajada, jumladan 14 foizi o'rta va kuchli darajada sho'rlanganligi ekinlardan ko'zlangan hosilni olishga va ushbu qishloq xo'jaligi yerlaridan barqaror foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [5].

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, mavjud yer, suv va boshqa resurslardan yanada oqilona foydalanish, zamonaviy va intensiv texnologiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Xususan, ekin maydonlaridan yil davomida samarali foydalanish hisobiga asosiy, oraliq va takroriy ekin sifatida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ekinlari ekilib, ulardan yuqori hosil yetishtirilib, nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham savdo hajmini oshirishga imkoniyat yaratildi. Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi kundan kunga ortib bormoqda.

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini tahlil qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish 2020-yilda 103,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib esa 104,2 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish 2024-yilda 2020-yilga nisbatan bor-yo'g'i 0,5 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 2020-yilda 105,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda esa 102,9 foizni tashkil etgan. Qashqadaryo viloyatida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 2,5 foizga kamaygan.

1-jadval  
Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari

|                                                              | YILLAR |       |        |       |       |
|--------------------------------------------------------------|--------|-------|--------|-------|-------|
|                                                              | 2020   | 2021  | 2022   | 2023  | 2024  |
|                                                              | JAMI   |       |        |       |       |
| Barcha toifadagi xo'jaliklar                                 | 103,7  | 101,3 | 104,9  | 103,7 | 104,2 |
| Shu jumladan:                                                |        |       |        |       |       |
| Fermer xo'jaliklari                                          | 102,7  | 101,9 | 104,2  | 109,7 | 105,7 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari                      | 102,4  | 102   | 102    | 101,4 | 104,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 157,8  | 82,5  | 191,8  | 102,5 | 94,3  |
| Dehqonchilik mahsulotlari                                    |        |       |        |       |       |
| Barcha toifadagi xo'jaliklar                                 | 105,4  | 100,4 | 107,4  | 103,7 | 102,9 |
| Shu jumladan:                                                |        |       |        |       |       |
| Fermer xo'jaliklari                                          | 102,7  | 102   | 102,5  | 108,4 | 109   |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari                      | 103    | 100,8 | 101,5  | 95,9  | 105,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 178,8  | 79,8  | 2,4 m. | 95,7  | 89,3  |
| Chorvachilik mahsulotlari                                    |        |       |        |       |       |
| Barcha toifadagi xo'jaliklar                                 | 102,7  | 101,9 | 103,3  | 103,8 | 105,1 |
| Shu jumladan:                                                |        |       |        |       |       |
| Fermer xo'jaliklari                                          | 102,1  | 100,5 | 132,4  | 126,9 | 110,7 |
| Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari                      | 102,3  | 102,3 | 102,2  | 102,5 | 104,8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 128    | 86,7  | 122,1  | 125,9 | 105,5 |

Respublikamiz, jumladan Qashqadaryo viloyatida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda: oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalari soni va ularning qayta ishlash quvvati etarli emasligi; qayta ishlash uchun xomashyo manbalari va hajmining etishmasligi; qayta ishlash sanoati standartlariga javob beradigan navlarning etishmasligi, meva-sabzavotlarning pishib, o'tib ketishi yoki o'z vaqtida etkazib berilmasligi oqibatida xomashyo sifatining buzilishi;

qayta ishlash korxonalarining xomashyo etkazib beruvchilar, ichki va tashqi bozorlardagi sotuvchilar bilan barqaror, mustahkam va uzoq muddatli integratsion aloqalarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi.

Bundan tashqari, 2025-yilga borib O'zbekiston o'rtacha darajadan yuqori daromad oladigan mamlakatlar qatoriga kirishi maqsad qilingan. Bu iste'molchilarning turmush tarzi, xulq-atvor andozalari, ovqatlanish ratsioni tegishli tarzda o'zgarishiga olib keladi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish

| HUDUDLAR                    | YILLAR         |                |                |                |                |
|-----------------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
|                             | 2020           | 2021           | 2022           | 2023           | 2024           |
| <b>QASHQADARYO VILOYATI</b> | <b>23777,8</b> | <b>28275,6</b> | <b>32240,7</b> | <b>38462,6</b> | <b>42693,2</b> |
| Qarshi sh.                  | 172,4          | 179,6          | 214,9          | 288,5          | 270,4          |
| Shahrisabz sh.              | 196,6          | 238            | 250,4          | 309            | 349            |
| tumanlar                    |                |                |                |                |                |
| G'uzor                      | 1503,6         | 1785,3         | 2004,3         | 2346           | 2721,5         |
| Dehqonobod                  | 1096,9         | 1208,1         | 1295,4         | 1554,1         | 1782,3         |
| Qamashi                     | 2186,2         | 2629,5         | 2894,1         | 3317,7         | 3693,2         |
| Qarshi                      | 1950           | 2364,9         | 2616           | 3049,6         | 3274,3         |
| Koson                       | 2249,1         | 2685,5         | 3150           | 3735,7         | 4123,6         |
| Kitob                       | 1971,9         | 2434,7         | 2487,5         | 3301,1         | 3908,8         |
| Mirishkor                   | 1517           | 1863,3         | 2287,3         | 2521           | 2685,9         |
| Muborak                     | 1117,3         | 1425,1         | 1620,9         | 1846,2         | 2031,9         |
| Nishon                      | 1523,2         | 1842,7         | 2360,2         | 2840,6         | 2984,4         |
| Kasbi                       | 2028,3         | 2443,2         | 2950           | 3524,2         | 3794,5         |
| Ko'kdala                    | -              | -              | 1692,7         | 2093           | 2342,8         |
| Chiroqchi                   | 3029,1         | 3209,2         | 2145,3         | 2591,9         | 2877,1         |
| Shahrisabz                  | 1522,7         | 1798           | 1994,9         | 2380,5         | 2669,2         |
| Yakkabog'                   | 1713,5         | 2168,5         | 2276,8         | 2763,5         | 3184,2         |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shularni e'tiborga olgan holda, ovqatlanish me'yorlarini joriy qilish (shu jumladan, zarur nutriyentlar mavjud bo'lishi, zararli moddalar, turli qo'shimchalar, veterinariya preparatlari, bo'yoqlar, ta'm beruvchilar, emulgatorlardan foydalanishni hamda mahsulotlarni tayyorlash, ishlov berish, tashish va saqlash texnologiyalariga rioya etilishini nazorat qilish), shuningdek, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat qiymat zanjiridagi barcha jarayonlarni takomillashtirish uchun yanada samarali qo'llab-quvvatlash, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini

ishlab chiqish zarur.

O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) O'zbekiston aholisi uchun oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishning xalqaro miqyosda tan olingan ta'riflariga muvofiq — oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi, foydalana olish imkoniyati, iste'mol, barqarorlik va doimiylikini ta'minlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Aholini xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash alohida ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. Odamlarning taqdiri asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va yetarli darajada tibbiy

ta'minlanish qanday yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Aholining ovqatlanishining yomonlashishi demografik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy va mintaqalararo keskinlikni oshiradi va davlatning ichki xavfsizligiga tahdid soladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sanoat korxonalari faoliyatining mavjud mexanizmining puxta ishlanganligi va uning iqtisodiyotdagi ulushi va salmog'ini kengayishi natijada esa aholini xavfsiz va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga olib keladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari o'z faoliyatini va uning rentabelligini baholash uchun tarkibiga nafaqat moddiy faoliyat samaradorligi balki, ichki resurslar salohiyati samaradorligini oluvchi oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining iqtisodiy faoliyatining integral ko'rsatkichidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu kabi korxonalarning boshqaruv tizimini strategik maqsadlariga muvofiqligini ta'minlash, uning bozorda mavjudligini saqlab qolish yoki raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlash ushbu sanoatni bugungi raqobat kurashida va xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqarishda eng dolzarb masala hisoblanadi.

#### Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Saidova Gulnoza Tulkunovna Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi / Саидова Гульноза Тулкуновна Каршинский государственный технический университет Стажер-преподаватель кафедры «Инновационная экономика» Saidova Gulnoza Tulkunovna Karshi State Technical University Trainee-teacher of the Department of "Innovative Economics"

► [gulnoza0410@gmail.com](mailto:gulnoza0410@gmail.com)

■ <https://orcid.org/0009-0001-5436-2344>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son Farmoni. 16 fevral, 2024- yil.
- [2]. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. "Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi". O'quv qo'llanma. T.: "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, 2016. - 68 b.
- [3]. D.V.Zerakalov "Oziq-ovqat xavfsizligi" monografiyasi. 1-JILD, 5-SON (YO'ITJ) 169 YANGI O'ZBEKISTON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI.
- [4]. [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz) L.Revenko o'zining "Oziq-ovqat xavfsizligi yechimini topish imkoni mavjud" nomli maqolasi.
- [5]. H.P.Abulqosimovning "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" o'quv qo'llanmasi.
- [6]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi materiallari. 2020-2024 yillar. – T., 2024.
- [7]. Qashqadaryo viloyati 2020-2024 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlar to'plami.